

TIL O‘RGANUVCHILARIDA LEKSIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING INTERAKTIV METODLARI

Ahmadova Azimaxon Behzod qizi

*Farg‘ona davlat universiteti; Chet tillari fakulteti, xorijiy til va adabiyoti: nemis tili
yo‘nalishi I-bosqich 24.116-guruh talabasi
akhmadovaazima627@gmail.com
Tel:(+998)90) 581-21-81*

Annonatsiya: Bugungi kunda “Yangi O‘zbekiston” yoshlari orasida xorijiy tillarga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada ortmoqda. Ayniqsa, chet tillari fakulteti talabalarining bilimga chanqoqligi va til o‘rganishdagi intilishi e‘tiborga loyiq. Ushbu maqolada til o‘rganish jarayonidagi eng muhim omil — so‘z boyligi va uni rivojlantirish usullari atroflicha yoritilgan. Leksik kompetensiyaning pastligi natijasida yuzaga keladigan muammolar, xususan, eslab qolishdagi qiyinchiliklar haqida fikr yuritiladi. Tajriba va ilmiy izlanishlarga asoslangan yondashuvlar, ijodiy fikr yuritish va tasavvur kuchidan foydalangan holda so‘zlarni yodlab qolish strategiyalari maqolaning diqqatga sazovor jihatlaridan biridir. Til o‘rganuvchilar uchun ushbu maqola nafaqat nazariy bilim, balki amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: leksik kompetensiya, verbal, nonverbal, interaktiv o‘yinlar, „Mevali salat“.

KIRISH

Hozirgi kunda yangi O‘zbekiston yoshlari til o‘rganishga katta qiziqish bildirishmoqda. Bir nechta tillarda erkin so‘zlasha oladigan yoshlar talaygina. Ayniqsa, chet tillari fakulteti talabalarida til o‘rganishga bo‘lgan qiziqish yuqori bo‘ladi. Til o‘rganishda eng muhim omillardan biri bu – so‘z boyligi. Ko‘pchilik til o‘rganuvchilarida ko‘p kuzatiladigan qiyinchiliklardan leksik kompetensiyani misol qilib keltirishimiz mumkin. Aynan shu kompetensiya pastligi sababli gapirish va tushunishda muammolar yuzaga keladi. Bu turli xil sabablar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan, xotiraning pastligi, qiziqish yo‘qligi, chalg‘ituvchi narsalarning ko‘pligi va boshqalar sabab bo‘ladi. Bu muammoni bartaraf qilish uchun ko‘plab metodlar mavjud. Bu ustida talaygina olimlar taqdiqot olib borishgan. Susanne Daum²⁴, Hans Hirling²⁵, Barbara Rukstajn²⁶, Valeska Hagner²⁷ va boshqalarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

²⁴ “44ta kommunikativ o‘yinlar» kitobi muallifi

²⁵ “1000ta o‘yinlarning kata kitobi” muallifi

²⁶ “A1-B1 o‘yinlar” kitobi muallifi

²⁷ “Vaqti-vaqti bilan o‘yinlar ham ziyon qilmaydi” kitobi muallifi

ASOSIY QISM

Ko‘proq so‘zlar bilish barcha til o‘rganuvchilari uchun muhim hisoblanadi. Bekorga “So‘z boyligi” deb atalmaydi-da. So‘zlar yodlash orqali barcha ma‘lumotlarni o‘qib, eshitib tushunish mumkin va o‘z fikrini erkin va ravon aytish yoki yozma tarzda bayon qilish mumkin. Afsuski, ko‘plab til o‘rganuvchilarni so‘zlar yozlash bo‘yicha muammolar kuzatilib turadi. Bular normal holatm aslida. Bu muammo bo‘yicha ko‘plab interaktiv metodlar o‘ylab topilgan va hozirgi kunda ham yangilanmoqda. Marslen Wilson tomonidan o‘tkazilgan tajriba shuni ko‘rsatadi-ki, bir so‘zni eshitganda tushunish uchun 0,2 sekund vaqt ketar ekan. Bitta so‘zni talaffuz qilish uchun esa, 0,4 sekund.²⁸ Bundan ko‘rinib turibdi-ki, miyyamiz biz anglab yetmagan kuchga ega. Faqatgina uni to‘g‘ri narsalarga sarflash muhim hisoblanadi. So‘zlar miyyamizda ikki xil usulda bilan saqlanib qoladi²⁹:

1. Verbal

2. Nonverbal


So‘zlarni chet tilidagi ta‘rifi bilan eslab qolish bu **verbal** usulga kiradi. Yana misol tariqasida shuni aytishim mumkin-ki, qarama-qarshi ya‘ni antonimlar bilan eslab qolish yoki sinonim so‘zlar bilan ham eslab qolish samarali usul hisoblanadi. Verbal usulning yana bir misoli shundan iborat-ki, so‘zlarni guruhlariga ajratib o‘rganish. Misol uchun, meva: olma, nok, uzum, behi....

Nonverbal usuldan foydalanish ijodkor insonlarga ko‘proq foyda beradi deb o‘ylayman, chunki ular kuchli tasavvur qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. So‘zlarni rasmda ko‘rish orqali eslab qolish, yoki belgilar, ovozlar bilan eslab qolish so‘zlarni yodlashni va miyyada saqlanib qolishni osonlashtiradi. Mimika va harakatlar orqali so‘zlarni yodda saqlash qulay usullardandir. Jahli chiqayotgan inson qiyofasini ko‘ratish bilan birga, chet tilidagi jahldor so‘zini eslab qolish mumkin.

Hozirgi digitallashgan zamonda digital media vositalarini darslarda qo‘llash, o‘rganish samaradorligini oshiradi. De.statista.com tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnoma shuni ko‘rsatadi-ki, maktablarda kompyuter, elektron doska, smartfon vaboshqa elektron vositalar orqali internetdan ko‘plab foydali ma‘lumotlarni olish va o‘rganishni osonlashtirish mumkin.

²⁸ “Wortschatzarbeit und Bedeutungsvermittlung” Bernd-Dietrich Müller

²⁹ “55 Wortschatzspiele” Sussane Daum



30

MUHOKAMA

Ushbu metodlarni qo'llash orqali qanday natijalarga erishish mumkin? Buni oddiy bir dars misolida olaylik. Bitta darsda turli xil metodlarni qo'llash va undan foydalanmaslik farqlarini ko'rib chiqamiz. Hozirgi digitallashtirish bir paytda miyya elektron gajetlarga o'rgangan va tabiiy-ki o'qish va o'rganishga umuman xohish yo'q hamda miyya ham yangi ma'lumotlarni qabul qilishni xohlamaydi. Bunda zamonaviy, interaktiv metodlardan foydalanish juda muhim, albatta. Sababi, qiziqarli metodlar sababli o'rganish samaradorligini oshirish va kutilgandanda yaxshiroq natijalarga erishish muhimdir.

Misol uchun, so'zni eslab qolish, undan keyin uni amaliyotda qo'llay olish ham bir san'at aslida. Darsda guruhdoshlar o'rtasida do'stona muhitni shakllantirish va samaradorlikni oshirish bo'yicha "Mevali salat" o'yinini misol qilib keltirishimiz mumkin. Bunda barcha o'quvchilar doira bo'lib o'tirib, $\frac{3}{4}$ tadan guruhlariga ajralishadi. Har bir guruhni har xil meva nomlari bilan nomlash kerak. Misol uchun, 1-guruh "Olma", 2-guruh "Gilos" va hokazo. O'yin quyidagicha davom etadi, o'yinni olib boruvchi o'rtaga chiqadi va hamma qatnashayotgan mevalarni nomini sanab gap tuzadi. Nomini eshitgan mevalar o'z joylarini almashtirishlari shart hisoblanadi. Kelasi gal faqat bittadan meva nomi aytib o'tilishi mumkin. O'yin shu tariqa davom etadi. Bu bilan birgalikda, drasni qiziqarli qilib tashkillash va o'rganilgan so'zlarni eslab, og'zaki nutqda gap tuzishga yordam beradi.

³⁰ <http://cdn.statcdn.com/Infographic/images/normal/14215.jpeg>

XULOSA

Shu bilan birga, til o‘rganish jarayoni nafaqat so‘z boyligini oshirish, balki fikrlash, ifodalash va muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishni ham talab qiladi. Bugungi kunda interaktiv metodlar, ayniqsa digital texnologiyalar va o‘yinlar yordamida o‘rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish mumkin. So‘zlarni eslab qolish va amaliyotda qo‘llash, albatta, faqat bilimlarni mustahkamlash emas, balki ular bilan o‘z fikrini erkin ravon ifodalash imkoniyatini ham beradi. O‘quvchilarga yangi so‘zlarni o‘rganishda kreativ va innovatsion yondoshuvlarni qo‘llash, ularning o‘qish va til o‘rganishdagi motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

Til o‘rganish jarayonida so‘z boyligini kengaytirish uchun turli metodlardan foydalanish, nafaqat tilni mukammal egallashga, balki keng ko‘lamdagi madaniyatlarni va ularning ajralmas qismi bo‘lgan nutqni chuqurroq anglashga yordam beradi. O‘rganish metodlarining yangilanishi, shuningdek, til o‘rganishning yangi usullari va vositalarini integratsiyalash, yoshlarning bilim olishdagi ehtiyojlarini qondirishda muhim omil bo‘lib qoladi.

Shu bilan birga, til o‘rganish, ayniqsa, chet tillari bo‘yicha ta‘lim oluvchi talabalar uchun nafaqat o‘zgarishlarni anglash, balki global dunyoda muvaffaqiyatli va samarali muloqotda bo‘lishning asosiy omillaridan biri bo‘lib qoladi. Yangi metodlar va kreativ yondoshuvlar til o‘rgatish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida, talabalarning til o‘rganishdagi muvaffaqiyatlarini yanada yuqori qilishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “44ta kommunikativ o‘yinlar”
2. JIM-Studie 2017
3. “1000ta o‘yinlarning kata kitobi”